BMT "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ni mamlakatimizda izchil amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabrdagi 841-sonli "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan 2030-yilgacha bo'lgan davrda "Milliy maqsad va vazifalar hamda ularni amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi" tasdiqlangan va unda 2030-yilgacha bo'lgan davrda: fuqarolarning o'ta qashshoqlik shaklini bartaraf etish



va kam ta'minlanishning barcha ko'rinishlarini ikki barobarga qisqartirish; aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligi va samaradorligini kuchaytirish; zarur hajmda ovqatlanishning yuqori sifati va balanslashganligini ta'minlash va to'yib ovqat yemaslikning barcha shakllariga barham berish; oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish; qishloq infratuzilmasi, agrar tadqiqotlar, texnologiyalarni rivojlantirish kabi bir qator vazifalarni amalga oshirish belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jefri Saksga ko'ra "Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) butun dunyo bo'ylab muhim ijtimoiy ustuvor yo'nalishlarga erishish uchun global safarbarlikning tarixiy va samarali usulini belgilaydi. Ular (BRM) qashshoqlik, ochlik, kasalliklarga chalinish, maktabda ta'lim olmaslik, gender tengsizligi va atrof-muhit ifloslanishi kabi holatlardan keng jamoatchilik tashvishlarini ifoda etadi" [2].

Stafford-Smit va boshqa bir guruh olimlar BRMning 17 ta maqsadlari va 169 ta vazifalarni uchta yirik asosiy guruhlariga turkumlashgan: iqtisodiy o'sish, ijtimoiy integratsiya va atrof-muhitni muhofaza etish masalalari.

Ularning ta'kidlashicha BRM doirasida belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish quyidagi 3 ta sohalarning o'zaro integratsion aloqalariga bog'liq: sektorlararo integratsion aloqalar (masalan, moliya, qishloq xo'jaligi, energetika va transport); jamiyat institutlari orasidagi integratsiya (mahalliy davlat boshqaruvi organlari, davlat muassasalari, xususiy sektor i fuqarolik jamiyati); past, o'rtacha va yuqori daromadli mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro integratsion aloqalar" [3].

Devid Krigs boshchiligidagi olimlarning ta'kidlashicha, "kelgusida antropogen jarayonlarning yanada kuchayishi yer yuzida keng ko'lamli, keskin va orqaga qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Suv tanqisligi, ekstremal ob-havo sharoitlari, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sharoitlarining yomonlashuvi, ekosistemaning izdan chiqishi, yerlarning sho'rlanishi, dengiz va yer osti suvlari sathining ko'tarilishi – bularning barchasi rivojlanishga to'siq bo'luvchi hamda butun jahon bo'ylab gumanitar inqirozni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan real xatarlar hisoblanadi. Farovonlikni yuksaltirish va kambag'allikni bartaraf etish barcha mamlakatlar xalqlaridan hayot kechirishning barqaror usullariga o'tishni talab qilmoqda" [4].

Robert Keyts va boshqa olimlarning fikricha, dunyo 2050-yilga borib ochlik va qashshoqlikni qisqartirish hamda sayyoramizning asosiy hayot kechirish tizimlarini saqlab qolish bilan birga, insonlarni boqish, tarbiyalash, ta'lim berish va ish bilan band qilish uchun yetarli resurslar, materiallar va axborot bilan yetarli miqdorda ta'minlagan taqdirdagina barqarorlikning minimal darajasiga erishgan bo'ladi" [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

BMT "Barqaror rivojlanish maqsadlari" doirasida kambag'allikni bartaraf etish, ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda agrar ishlab chiqarishni raqamlashtirish va "aqli qishloq xo'jaligi"ni joriy etish orqali qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlarning ilmiy ishlari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etadi. Tadqiqotda abstrakt va analitik mushohada, normativ va pozitiv tahlil, qiyosiy va omilli tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Maqolani tayyorlashda BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Qishloq xo'jaligi rivojlanishi xalqaro jamg'armasi (IFAD), BMTning Xalqaro bolalar fondi (UNICEF), Jahon oziq-ovqat dasturi (WFP) va Jahon sog'likni saqlash tashkiloti (WHO) ishlanmalari hamda O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA TADQIQOT NATIJALARI

BMT hamda barqaror rivojlanish asalalari yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olimlar fikrlarini umumlashtirish asosida xulosa qilish mumkinki, BRMning maqsadi va undan kelib chiqadigan asosiy vazifalar yer yuzidagi insonlar farovonligini oshirish maqsadini ko'zlovchi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolardan tashkil topgan, desak xato bo'lmaydi. BRMning asosini tashkil etuvchi bu uch element (iqtisodiy o'sish, ijtimoiy integratsiya va atrof-muhitni muhofaza qilish) bir-biri bilan o'zaro mustahkam bog'langan bo'lib, jamiyat va uning a'zolari farovonligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega, degan fikrdamiz.

BRMning unikalligi shundaki, ular barcha mamlakatlarni – sayyoramizni himoya qilish bilan birga kambag'al, boy va o'rta daromadli aholining farovonlikka erishishiga ko'maklashishga chaqiradi.

Ta'kidlash joizki, "Barqaror rivojlanish maqsadlari"da ko'zda tutilgan 17 ta maqsadning 12 tasi agrar va oziq-ovqat masalalariga bevosita yoki bilvosita tegishli. Mazkur tadqiqotda BRMning aynan agrar va oziq-ovqat siyosati hamda bu sektorlarni barqaror rivojlantirishga qaratilgan maqsadlari va vazifalarini tadqiq etishga e'tibor qaratilgan.

BRMning birinchi maqsadi 2030-yilga borib dunyo miqyosida "Hamma joyda qashshoqlikning har qanday ko'rinishiga barham berish"ni nazarda tutadi. Qashshoqlik – bu shunchaki barqaror hayot kechirish uchun daro-



madlar va resurslarning yetishmovchiligi emas. U ochlik va to'yib ovqat yemaslik, ta'lim va boshqa ijtimoiy xizmatlarga cheklangan imkoniyat, ijtimoiy diskriminatsiya hamda ayrim toifadagi insonlarning qarorlar qabul qilishda ishtirok eta olmasligida namoyon bo'ladi ^[6].

Qashshoqlik turli shakllarda namoyon bo'lib, uning vujudga kelish sabablari sifatida ishsizlik, ijtimoiy yakalanish, ayrim mamlakatlar aholisining tabiiy ofatlar va epidemik kasalliklar oqibatlariga kuchli bog'liqligi kabi omillarni kiritish mumkin. Bunday holatlar kishilarning to'laqonli hayot kechirishiga imkon bermaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra yer sharida hamon 780 milliondan ortiq kishi o'ta qashshoqlikda hayot kechiradi va ularning 70 %dan ortig'i kuniga 1,9 dollardan kam daromad topadi. Dunyoning eng boy mamlakatlarida bolalarning 30 %dan ortig'i qashshoqlik darajasida hayot kechirishga majbur. Yer yuzidagi 5 yoshgacha bo'lgan har to'rt bolaning bittasi yetarlicha bo'y va og'irlikka ega emas ^[7].

BMT notenglik va qashshoqlikni iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilib, jamiyatdagi hamjihatlik va farovonlikka putur yetkazadi, ayrim holatlarda esa siyosiy beqarorlik va kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi, deb baholagan ^[8].

Qashshoqlikning barcha ko'rinishlarini bartaraf etish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning eng muhim shartlaridan biri sanaladi. Buning uchun bosqichma-bosqich, keng qamrovli va adolatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash, barcha uchun keng imkoniyatlarni ochish, tengsizlikni bartaraf etish va adolatli ijtimoiy muhitni shakllantirish, turmush kechirish farovonligi ko'rsatkichlarini oshirib borish, resurslardan samarali foydalanish va ekotizimni saqlashning barqaror usullaridan foydalanish talab etiladi.

Keyingi yillarda dunyo miqyosida kambag'allikning keltirib chiqaruvchi omillar va ularni bartaraf etish yo'llariga oid qator ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganini qayd etish joiz. Ulardan 2019-yilgi Nobel mukofoti sohiblari Abxijit Banerji, Ester Dyuflo va Maykl Kremerlarning kambag'allikni qisqartirish bo'yicha olib borgan ochiq kuzatuvlar asosidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini alohida ta'kidlash joiz.

Olimlar olib borgan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, global qashshoqlikni qisqartirish bo'yicha dunyo bo'ylab amalga oshirilayotgan minglab dasturlar, kambag'al davlatlarga ko'rsatilayotgan oziq-ovqat va boshqa yordamlar, fan-texnika va tibbiyot yutuqlari insonlarni ocharchilik va o'limdan saqlab qolayotgani hamda sayyoramizdagi resurslar har bir insonni yetarlicha oziq-ovqat bilan ta'minlash imkonini berishiga qaramasdan, hamon yer yuzidagi aholining 13% i kuniga 99 sent ekvivalentiga teng daromad ishlab topib, tirik qolishga harakat qilmog'da. Daromadlar va milliy valyutalar xarid qobiliyatining pastligi sharoitida bu mablag' bilan ular kambag'allik tuzog'idan chiqib ketolmaydilar.

Ko'p mamlakatlarda kambag'allar hayot zarur bo'lgan eng asosiy xizmatlar, ya'ni sifatli ta'lim va tibbiy xizmat, toza ichimlik suvi, tabiiy gaz, transport, kommunikatsiya va boshqa qulayliklardan foydalanish imkoniga ega emas.

Abxijit Banerji, Ester Dyuflo va Maykl Kremerlar dala tadqiqotlari usulida kuzatuvlar hamda tajribalar o'tkazish orqali Osiyo va Afrikaning qator iqtisodiyoti sust rivojlangan mamlakatlarda kambag'al oilalar farzandlarining majburiy boshlang'ich va o'rta ta'lim bilan qamrab olish, o'qituvchilarning malakasini oshirish hamda sinflarda o'quvchilar sonini kamaytirish orqali ta'lim sifatini oshirish, kambag'al oilalar farzandlarini yuqumli kasalliklarga qarshi majburiy emlash hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, mikrokreditlash va tadbirkorlikka ruhlantirish dasturlari orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan mexanizmlarni taklif qilishgan ^[9].

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbayiga ega emasligi, turli hisob-kitoblarga ko'ra O'zbekiston aholisining 12–15 foizi yoki 4,5–5 million kishi kam ta'minlangan aholi qatlamlariga kirishi qayd etildi ^[10].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5975-sonli Farmoni va ushbu Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi.

Bugungi kunda BMT Taraqqiyot dasturi, Jahon banki, YuNISEF, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari, mahalliy ilmiy-tadqiqot muassasalari mutaxassislari, vazirlik va idoralar ishtirokida "2021–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish Strategiyasi" ishlab chiqilgan. "Hamma joyda qashshoqlikning har qanday ko'rinishiga barham berish" uchun BRMda 2030-yilga borib:

- barcha insonlarning, ayniqsa kambag'al va zaif qatlamlarning iqtisodiy resurslarga, jumladan asosiy xizmatlardan foydalanish, yer va boshqa mulk shakllariga egalik qilish, tegishli yangi texnologiyalar va moliyaviy xizmatlarga teng huquqlarda ega bo'lishlarini ta'minlash;
- kambag'allar va og'ir vaziyatda qolgan zaif qatlamlarning yashash sharoitlarini yaxshilash, ularning iqlim o'zgarishi yuzaga keltirgan ekstremal hodisalar va boshqa iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik larzalar hamda musibatlar oldidagi himoyalanmaganligi va zaifligini kamaytirish;



- kambag'allikni bartaraf etish uchun har xil manbalardan resurslarni safarbar etishni ta'minlash va bu borada rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatish kabi vazifalar ko'zda tutilgan.

BRMning ikkinchi maqsadi "Ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash va qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish"ni ko'zda tutadi. Ochlik va to'yib ovqatlanmaslik insonlar mehnat qobiliyatini pasayishi va kasalliklarga chalinuvchanligining oshishiga, oxir-oqibatda esa ularning daromad topish imkoniyatlarini pasayishi va turmush sifatini yomonlashuviga olib kelib, dunyo iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga to'siq bo'lib qolmokda.

FAO tadqiqotlariga ko'ra: yer sharida 820 milliondan ortiq kishi to'yib ovqatlanmaslikdan qiynaladi va bu ko'rsatkich 2050-yilga borib 2 milliardga yetishi mumkin; dunyo aholisining har uchtdan bittasi to'laqonli ratsion asosida ovqatlanmaydi; dunyo bo'yicha 5 yoshgacha bolalar o'limining 45 %i to'yib ovqatlanmaslik natijasida yuz beradi va har yili 3,1 million bola shu sababli olamdan o'tadi ^[12].

Oziq-ovqat yetishmovchiligi ayrim mamlakatlarda yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligining pastligi, aholi jon boshiga ekin maydonlarining qisqarib borayotganligi, hosilni yig'ib olish, tashish va saqlash jarayonlarida yo'qotishlarning ko'pligi kabi omillar ta'sirida yuz bermoqda.

BMT prognozlariga ko'ra 2050-yilga borib dunyo aholisi 10 milliard kishiga yetishi mumkin va bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning degradatsiyaga uchrashi kuchayayotgan hamda suv resurslari qisqarib borayotgan bir sharoitda dunyo aholisini yetarli miqdor va sifatdagi oziq-ovqatlar bilan ta'minlash vazifasini murakkablashtiradi. Bugungi kunda yer sharidagi 7,7 milliarddan ortiq aholining 2,6 milliard yoki 33 %dan ziyodi asosan qishloq xo'jaligi hisobiga kun kechirayotgan bir paytda, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning 52 %i kuchli degradatsiyaga uchraganligi oqibatida tuproq unumdorligi sezilarli darajada pasaygan. Qurg'oqchilik va cho'llashuv jarayonlari natijasida har yili 12 million gektar yer (har minutda 23 gektar) foydalanishdan chiqib ketmoqda. Vaholanki, bu maydonlarda har yili 20 million tonnagacha don yetishtirish mumkin edi.

Yerlarning degradatsiyasi dunyodagi 74 % kambag'al aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Shu bilan birga, sayyoramiz iqlimining keskin o'zgarishi, "global isish", atrof-muhitning ifloslanishi kabi holatlar qishloq xo'jaligi samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosilini yig'ishtirib olish, tashish, saqlash va iste'molchilarga yetkazib berish tizimlaridagi nuqsonlar tufayli har yili qiymati 1 milliard dollarga teng bo'lgan 1,3 milliard tonna oziq-ovqat mahsulotlari nobud bo'lmoqda.

Ochlik va to'yib ovqatlanmaslik insonlar mehnat qobiliyatini pasayishi va kasalliklarga chalinuvchanligining oshishiga, oxir-oqibatda esa turmush sifatini yomonlashuviga olib kelib, dunyo iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga to'siq bo'lib qolmokda. Ochlikka barham berish iqtisodiyot, sog'liqni saqlash va ta'lim olishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, tenglik va ijtimoiy taraqqiyotga katta hissa qo'shishi mumkin. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2030-yilga qadar ochlikni bartaraf etish uchun har yili o'rtacha 267 milliard dollar miqdorida qo'shimcha mablag' kerak bo'ladi ^[13].

O'zbekistonda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti barqarorligiga erishish, kam daromadli oilalarning xarid qobiliyatini oshirish, mahsulotlar narxi va miqdori keskin o'zgarishining oldini olish hal etilishi zarur bo'lgan muammolardan hisoblanadi. Mazkur ustuvor yo'nalishning asosiy maqsadi – respublikaning barcha aholisi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirishdan iborat.

FAO ma'lumotlariga ko'ra dunyodagi o'ta qashshoqlikda yashovchi aholining deyarli 75 %i qishloq joylarida yashaydi va ularning kun kechirishi va oziq-ovqat xavfsizligi asosan agrar sektorning rivojlanishiga bog'liq. Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish yetarli hajmda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va ish o'rinlari yaratish evaziga qishloq hududlarida ochlikka barham berish, oilani boqish va to'kis hayot kechirish uchun imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi"ning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, quyidagi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi: aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash; qulay agrobi- znes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish; soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash; davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish; tarmoqni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish; qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish; qishloq hududlarini rivojlantirish; tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish.

Strategiya doirasida O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi sohasini 2030-yilgacha rivojlantirishda quyidagi ko'rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi (1-jadval).



1-jadval: O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini amalga oshirish natijasida erishiladigan asosiy ko'rsatkichlar va indikatorlar

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Asos (2018-yil)	2021-yilga maqsad	2025-yilga maqsad	2030-yilga maqsad
1.	Qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatning yillik o'sishi	117,3 trln. so'm	3%	5%	5%
2.	Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ida ish o'rinlari sonining o'sishi: Qishloq xo'jaligi Oziq-ovqat sanoati	3 671 300 91 420	2% 3%	1% 4%	1% 5%
3.	Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti hajmining oshishi	2,3 mlrd. AQSh doll.	3,5 mlrd. AQSh doll.	10 mlrd. AQSh doll.	20 mlrd. AQSh doll.
4.	Aholi o'rtasida to'yib ovqatlanmaydiganlar ulushi	6,3%	5%	3%	0
5.	Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish (bir nafar ishchiga bir yilda dollarda)	3 960 AQSh doll.	4 300 AQSh doll.	5 200 AQSh doll.	6 500 AQSh doll.

Manba: O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasiga 1-ilova

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot doirasida olingan natijalar asosida quyidagi xulosa tavsiyalarni ilgari suramiz:

- mulk huquqi va yerdan foydalanish daxlsizligini davlat tomonidan qat'iy muhofaza qilish orqali agrar sektorda mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlarini rivojlantirish;
- oziq-ovqat mahsulotlarini daladan dasturxonga yetkazib berishdagi nobudnarchiliklarni oldini olish;
- oziq-ovqat mahsulotlari sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish va xalqaro sifat standartlarini joriy etishni kengaytirish;
- raqamli va innovatsion, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish evaziga "aqlli qishloq xo'jaligi"ni rivojlantirish;
- organik dehqonchilikni rivojlantirishni davlat byudjetidan subsidiyalar orqali qo'llab-quvvatlash;
- "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi, "Minimal iste'mol savati to'g'risida"gi va "Minimal yashash minimumi to'g'risida"gi qonunlar qabul qilish jarayonini jadallashtirish;
- mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi monitoringini olib borish uchun har yil yakunida Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisida "Oziq-ovqat xavfsizligi holati bo'yicha Milliy ma'ruza"ni tinglash va muhokama qilish amaliyotini joriy etish.
- avtomatlashtirilgan raqamli texnologiyalarni qo'llashga asoslangan "agrosanoat majmuyi boshqaruvida raqamlashtirilgan texnologiyalar", "aniq dehqonchilik", "aqlli bog'", "aqlli issiqxona" va "aqlli chorva fermasi" kabi innovatsion usullarni joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqarish va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholash;
- uzoq muddatli iqlim o'zgarishlarini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi ekinlarini optimal joylashtirish, oziq-ovqat va resurslar bozorlari kon'yukturasini prognozlashning balanslashgan muvozanatlik va iqtisodiy-matematik modellariini tuzish va prognozlash;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, birlamchi va chuqur qayta ishlash hamda sotish jarayonlarini yagona raqamli platformaga bog'lash orqali "qo'shilgan qiymat zanjiri"ni kuzatib borish va tizimda mahsulotlar nobud bo'lishi bilan bog'liq yo'qotishlarni kamaytirish borasida tavsiyalar ishlab chiqish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/sustainable-development-goals/>
2. Sachs J. D. From millennium development goals to sustainable development goals //The lancet. – 2012. – T. 379. – №. 9832. – S. 2206–2211.
3. Stafford-Smith M. et al. Integration: the key to implementing the Sustainable Development Goals //Sustainability science. – 2017. – T. 12. – №. 6. – P. 911–919.
4. Griggs D. et al. Sustainable Development Goals for people and planet //Nature. – 2013. – T. 495. – №. 7441. – P. 305–307.
5. Robert K. W., Parris T. M., Leiserowitz A. A. What is sustainable development? Goals, indicators, values, and practice //Environment: science and policy for sustainable development. – 2005. – T. 47. – №. 3. – P. 8–21.
6. <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/sustainable-development-goals/>
7. www.un.org/sustainabledevelopment.
8. www.un.org/sustainabledevelopment/ru/sustainable-development-goals.
9. Banerjee, Abhijit V.; Duflo, Esther (2011). Poor Economics: A Radical Rethinking of the Way to Fight Global Poverty. New York: PublicAffairs. ISBN 9781610390408; Michael Kremer, Population Growth and Technological Change: One Million B. C. to 1990, The Quarterly Journal of Economics, Volume 108, Issue 3, August 1993, Pages 681–716, <https://doi.org/10.2307/2118405>.
10. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/>
11. <https://mineconomy.uz>.
12. www.fao.org/sustainable-development-goals.
13. www.un.org/sustainabledevelopment.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF–5853-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi”. www.Lex.uz.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

